

Milliy armiya - mening armiyam

TIQXMMI Qarshi filialida “Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo’limi” tomonidan 2020 yil 10 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 28 yilligi hamda 14- yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Armiya - tinchlik va osoyishtalik ramzi” va “Milliy armiya bayrami - mening bayramim” mavzularida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.



Tadbirni ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari X.Ravshanov ochib berdi. Tadbirda Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi Qashqadaryo viloyat bo‘limi rahbari o‘rinbosari L.Qambarov, Qashqadaryo viloyati Xonobod qo‘rg‘oni 15473-Harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari mayor A.Nishonov va 20 rafar harbiy qism askarlari, 63226-Harbiy qism harbiy xizmatchisi kapitan Sh.Jabborovlar qatnashdilar.



Tadbirda so‘zga chiqqan Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi Qashqadaryo viloyat bo‘limi rahbari o‘rinbosari L.Qambarov, 63226-Harbiy qism harbiy xizmatchisi kapitan Sh.Jabborovlar yig‘ilganlarni ushbu qutlug‘ kun bilan chin dildan samimiy muborakbod etishdi. Tadbirda harbiy askarlar tomonidan tayyorlab kelingan badiiy va harbiy ruhdagi sahna ko‘rinishlari namoyish etildi. Tadbirda TIQXMMI Qarshi filialiga tashrif buyurgan harbiy qism ofitser va askarlariga filial jamoasi tomonidan esdalik sovg‘alari berildi.

Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i B.Ro‘ziqulov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov